

## SOVUQ URUSH DAVRIDA QO'SHILMASLIK HARAKATINING TASHKIL TOPISHI VA EVOLYUTSIYASI

O'ktamova Movjuda Ilhom qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti 4-bosqich talabasi e-mail:

movjudauktamova@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Qo'shilmaslik harakatining Sovuq urush davridagi evolyutsiyasini tarixiy-xronologik yondashuv asosida tahlil qiladi. Bunda tashkilotning mafkuraviy asoslari, a'zo mamlakatlarning undagi manfaatlari va faoliyati, ikki qutbli dunyoda tashkilotda mavjud kamchiliklar o'rganiladi. Maqola siyosatshunoslik va xalqaro munosabatlar yo'nalishida ta'lim oluvchi talabalar va qiziquvchilar uchun tavsiya etiladi.

**Kalit so'zlar:** Harakat, Sovuq urush, buyuk kuch, uchinchi dunyo, Global Janub, Yangi xalqaro iqtisodiy tartib, BMT, Kuba, Vyetnam, Hindiston, sammit.

**Аннотация:** Данная статья анализирует эволюцию Движения неприсоединения в период холодной войны на основе историко-хронологического подхода. В ней рассматриваются идеологические основы организации, интересы и деятельность стран-участниц, а также выявляются недостатки движения в условиях биполярного мира. Статья рекомендуется студентам и заинтересованным лицам, обучающимся по направлениям политологии и международных отношений.

**Ключевые слова:** Движение, холодная война, великая держава, третий мир, Глобальный Юг, новый международный экономический порядок, ООН, Куба, Вьетнам, Индия, саммит.

XX asrning ikkinchi yarmi kapitalistik va kommunistik guruhlarga bo'lingan ikki qutbli dunyoda geosiyosiy qarama-qarshiliklar davri sifatida namoyon bo'ldi. Ikkinchi jahon urushining og'ir ta'atfotlari ortidan zarar ko'rgan davlatlar, ayniqsa, Afrika va Osiyo xalqlari urushdan so'ng endigina mustamlakachilikdan ozod bo'lishgan edi. Yangi mustaqillikka erishgan mamlakatlar o'zining erkin siyosatini yuritishni va ikki blokdan birortasiga qo'shilmaslikni afzal topishdi. Qo'shilmaslik harakati ushbu mustamlakachilik va neokolonializmga qarshi mafkuraviy kurash maydoni bo'lib shakllandi.

"Qo'shilmaslik" atamasi birinchi marta 1950-yilda Birlashgan millatlar tashkilotida Hindiston va Yugoslaviya tomonidan qo'llanilgan. Ya'ni ikki davlat ham Koreya urushi bilan bog'liq ko'p tomonlama ittifoqlarda bir tomonga qo'shilishni rad etishgan. Xalqaro munosabatlarning realizm nazariyasiga ko'ra, davlatlar anarxik tizimda omon qolishga intiladi. Xuddi shunday, Harakat a'zolari ham o'z davlatlarining ichki ishlariga tashqaridagi kuchlarning aralashuvini yo'qotish va unga qarshi turish hamda har bir xalq o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini himoya qilish maqsadida a'zolikni qabul qilishdi. Ular qurollanish poygasidan yiroq, "Sovuq urush" davridagi ziddiyatlarni rad etuvchi va tinch-totuv yashashni istaydigan davlatlar hisoblanadi.

Uchinchi dunyo istiqboliga ega bo'lgan harakatning tashkilotchilari sifatida Hindistondan Javaharlal Neru, Misrdan Jamal Abdul Nosir va Yugoslaviyadan Iosip Broz Tito yetakchilik ko'rsatishdi. Harakat 1955-yil 18-24 aprel kunlari Indoneziyaning Bandung shahrida bo'lib o'tgan xalqaro yig'ilish ortidan, Osiyo-Afrika davlatlari o'rtasidagi birinchi yirik uchrashuv deya tanildi va xalq orasida Bandung konferensiyasi nomi bilan mashhur bo'ldi.<sup>8</sup>

Birinchi konferensiyada Osiyo va Afrika davlatlarining aksariyati hali ham mustamlaka ta'sirida bo'lganligi sababli 29 ta davlat delegatsiyasi ishtirok etdi va o'sha davrdagi dunyoda mavjud muammolarni aniqlash va baholash hamda xalqaro munosabatlarda qo'shma siyosat yuritish masalalari muhokama qilindi. Aniqroq qilib aytganda, e'tibor kuchlar muvozanatiga emas, balki mazlum xalqlar ovozi uchun kurashga va jahon tarixini sobiq mustamlakalar nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqishga qaratilgan.

Dunyo tizimlari tahlilining asoschisi Immanuel Vallershteyn XX asrdagi mojarolarning asosiy yo'nalishi "Sovuq urush" emas, balki butun dunyoni G'arb nazoratidan xalos qilish istagi deb hisoblardi. U Bandung konferensiyasi va Qo'shilmaslik harakatidagi voqealarni kuzatib borgan va ularda ekspluatatsiya va hukmronlik nafaqat sinfiy kurash orqali, balki markaz va chekka hududlar o'rtasidagi global tengsizliklar orqali ham namoyon bo'lishini tasdiqlagan. U Harakat mafkurasini mustamlakachilik, irqchilik va iqtisodiy adolatsizlikka qarshi chiqish va xalqaromunosabatlarda yevrosentrizmni kengroq tanqid qilishning bir qismi sifatida ko'rgan.<sup>9</sup>

Bundan tashqari, ushbu yig'ilish ishtirokchilari tomonidan "Bandungning o'nta tamoyili" deb nom olgan katta-kichik davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi tamoyillar e'lon qilindi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Inson huquqlari va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining maqsad va tamoyillarini hurmat qilish.
2. Barcha davlatlarning suvereniteti va hududiy yaxlitligini hurmat qilish.
3. Barcha irqalar o'rtasidagi tenglikni va barcha millatlar o'rtasidagi tenglikni tan olish.
4. Boshqa davlatning ichki ishlariga aralashmaslik.
5. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomiga muvofiq har bir xalqning o'zini yakka tartibda yoki birgalikda himoya qilish huquqini hurmat qilish.
6. A. Kollektiv mudofaa shartnomalaridan biron bir buyuk davlatning o'ziga xos manfaatlarini ko'zlab foydalanmaslik.  
B. Hech bir davlat tomonidan boshqa davlatlarga nisbatan bosimlardan foydalanmaslik.
7. Har qanday davlatning hududiy yaxlitligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi tajovuzni amalga oshirish bilan tahdid qilishdan va kuch ishlatishdan tiyilish.
8. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomiga muvofiq barcha xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish.
9. O'zaro manfaatlar va hamkorlikni rag'batlantirish.

<sup>8</sup> Andre Munro. "Non-aligned movement". March 17, 2025. Encyclopedia Britannica. Available at: <https://www.britannica.com/topic/Non-Aligned-Movement> (Accessed day December 7, 2024)

<sup>9</sup> Craig Calhoun. Immanuel Wallerstein and the Genesis of world-systems analysis. 2023. Journal of World-systems research, Vol.29, Issue 2. Arizona university. Available at: <https://jwsr.pitt.edu/ojs/jwsr/article/download/1197/1611/5040#:~:text=Wallerstein%20reports%20being%20convinced%20from,Conference%20of%201955%2C%20and%20Indian> (Accessed day December 26, 2024)

10. Adolat va xalqaro majburiyatlarni hurmat qilish.<sup>10</sup>

Konferensiyada tasdiqlangan tamoyillarga asoslanib, 1961-yil 1-6 sentyabr kunlari Yugoslaviyaning Belgrad shahrida harakatning birinchi sammiti bo'lib o'tdi va undagi deklaratsiyaga asoslangan holda Qo'shilmaslik harakati rasman tashkil etildi. Sammit kengroq geografik asosda 25 ta davlat ishtirokida o'tkazildi, jumladan Afg'oniston, Jazoir, Yaman, Myanma, Kambodja, Shrilanka, Misr, Kongopi, Etrusba, Kongopiya, Gana, Gvineya, Hindiston, Indoneziya, Iroq, Livan, Mali, Marokash, Nepal, Saudiya Arabistoni, Somali, Sudan, Suriya, Tunis, Yugoslaviya kabi davlatlar ishtirok etdi. (2-ilova)

Belgrad sammitida tuzilgan a'zolik mezonlari shuni ko'rsatadiki, Harakat xalqaro siyosatda passiv rol o'ynash uchun emas, balki o'z a'zolari manfaatlarini aks ettirish va mustaqil ravishda o'z pozitsiyalarini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan. NATO va Varshava shartnomalariga qo'shilmasdan siyosiy neytrallikni saqlab qolish, a'zo davlatlarning iqtisodiyotini ko'tarishga va rivojlangan mamlakatlarning ta'sirini kamaytirishga xizmat qilish bo'ldi. Kengroq kontekstda konferensiyani tashkil etishga hissa qo'shgan asosiy omil dekolonizatsiyaning ta'siri va 1960-yillarda jahon sahnasida ko'plab yangi mustaqil Afrika davlatlarining tashkil etilishi edi.

Harakat ham sotsialistik, ham kapitalistik bo'lishni istamasa, u nima bo'lishni istardi degan savol paydo bo'ladi. Qo'shilmaslik Harakatida Sovet hududidagilarga qaraganda ko'proq o'zini mustaqil sotsialistik deb e'lon qilgan davlatlar bor edi. Masalan, Afrika sotsialistik davlatlari Gana, Tanzaniya va Zambiya, bir muddat Hindiston va Nepal, Chili shular qatoridan edi. Harakat ikki sababga ko'ra sotsializmni tan olmadi. Birinchidan, u o'zida sotsialistik bo'lmagan davlatlar a'zoligini xohladi. Ikkinchidan, tashkilot a'zodavlatlarning o'z siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarini tashqi aralashuvdan xoli belgilash huquqiga ega bo'lish prinsipini tan olgan.<sup>11</sup>

Oradan uch yil o'tib 1964-yil 5-10 oktyabr kunlari Harakatning ikkinchi sammiti Misrning Qohira shahrida 47 ta davlat va 10 ta kuzatuvchi maqomidagi mamlakatlar ishtirokida bo'lib o'tdi. Ushbu sammitda Abdul Nosir o'zining kirish so'zida Belgradda bo'lib o'tgan sammitdan so'ng xalqaro kontekst o'zgarganini payqadi va harakatni uchinchi blok emas, balki bloklarning bo'linishiga qarshilik va passiv siyosatdan ko'ra faol ekanligini tushuntirdi. Nosirning fikricha, ijtimoiy-siyosiy va tarixiy kuchlarning kelajagi va istiqboliga hamda ozodlikka intiluvchi xalqlar orasida siyosiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishga to'g'ridan-to'g'ri va yashirin imperializmni yo'q qilish orqali erishiladi. Gana prezidenti Kwame Nkrumah ham ichki ziddiyatlarning to'rtta asosiy sababini ta'kidladi, ya'ni bular Germaniya va Berlinning bo'linishi, tenglik uchun mustamlakachilarga qarshi ozodlik kurashi, «Sovuq urush» davridagi mafkuraviy bo'linishlar va buyuk kuchlarning qurollanishi natijasida yuzaga kelgan.<sup>12</sup>

Sammitda keyingi uch yil uchun Hindiston Bosh vaziri tomonidan Harakatning beshta qadamini, jumladan, yadroviy qurolsizlanish, chegaradagi kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal qilish, tashqi hukmronlikdan, tajovuzdan va irqiy kamsitishdan ozod qilish,

<sup>10</sup>Ministry of external affairs of India. "History and evolution of Non-aligned movement". August 22, 2012. Available at: <https://www.mea.gov.in/Speeches-Statements.htm?dtl/20349/History+and+Evolution+of+NonAligned+Movement> (Accessed day Dec 20, 2025)

<sup>11</sup> Ivana Ancic. "Belgrade, The 1961 Non-Aligned Conference". August 17, 2017. Global South Studies. Available at: <https://www.globalsouthstudies.org/keyword-essay/belgrade-the-1961-non-aligned-conference/> (Accessed day December 26, 2024)

<sup>12</sup> Cairo Declaration. 2nd Summit Conference of Heads of State or Government of the Non-Aligned Movement. September 10, 1964. Cairo, Egypt. Available at: [http://cns.miis.edu/nam/documents/Official\\_Document/2nd\\_Summit\\_FD\\_Cairo\\_Declaration\\_1964.pdf](http://cns.miis.edu/nam/documents/Official_Document/2nd_Summit_FD_Cairo_Declaration_1964.pdf) (Accessed day Dec 13, 2024)

tezroq rivojlanish va Birlashgan Millatlar Tashkilotini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bilan ta'kidladi.

Qo'shilmaslik harakatining uchinchi sammiti 1970-yil Zambiyaning Lusaka shahrida o'tkazildi. Konferensiya Sovet Ittifoqi va G'arb o'rtasidagi ziddiyatni yumshatishga olib kelgan Detante siyosatini rivojlantirish kontekstida tashkil etilgan. Uchinchi sammitning Zambiyada bo'lib o'tish sababi esa Rodeziya va Aparteid chegaralaridagi tahdidlar tufayli Zambiyani qo'llab-quvvatlash maqsadida tanlangan. Ushbu sammitda «Tinchlik, mustaqillik, taraqqiyot, hamkorlik va xalqaro munosabatlarni demokratlashtirish to'g'risida»gi va Qo'shilmaslik va iqtisodiy rivojlanish to'g'risida» gi deklaratsiyalar qabul qilindi. Shuningdek, BMT va Qo'shilmaslikni jahon tashkiloti oldidagi majburiyatini tasdiqlovchi, tinch va ilmiy maqsadlarda dengiz tubidan foydalanish, Yaqin Sharqagi vaziyatda Isroilning tajovvuzkorligi – Isroilni bosib olingan hududlardan chiqib ketishi va Isroilda jazoirliklarni hibsga olish, Livanga intervensiyaga chaqiruv, Janubiy-Sharqiy osiyodagi AQShning ishtiroki haqidagi tashvishli vaziyat, Fransiya, Ispaniya va Portugaliyaning Janubiy Afrikadagi vaziyatiga qarshi dekolonizatsiya chorasini ko'rish hamda Zimbabve va Nambiyada Portugaliyaning koloniyalarini yopish masalalari muhokama qilindi.<sup>13</sup>

1973-yilning 5-9 sentyabr sanalarida tashkilotning to'rtinchi sammiti bo'lib o'tdi. Jazoirda o'tkazilgan sammit jarayonida ishtirokchilar soni 76 ta davlatga yetdi hamda AQSh va SSSRni Uchinchi dunyoda samarali ishtirok etmasdan qurolsizlanish, jahon savdosi yoki jahon valyuta tizimi bo'yicha muhim qarorlar qabul qilmaslikka chaqirdi. Bundan tashqari, sammitda Fidel Kastro tomonidan SSSRni manfaatlarini ko'zlash holati kuzatilgan. Tadbir oldidan Leonid Brejnev Jazoir prezidentiga maktub yo'llagani va harakatni Sovet strategik manfaatlariga yo'naltirishga so'ralgani Liviya rahbari Kaddafiy tomonidan tanqid qilingan.<sup>14</sup>

Qo'shilmaslik harakatining beshinchi sammiti 1976-yil Shri-Lankaning Kolombo shahrida 86 ta davlat va 30 nafar kuzatuvchi ishtirokida bo'lib o'tdi. Ushbu sammitning qolganlaridan farqi shundaki, Shri-Lanka Bosh vaziri SirimavoBandaranaike davlatining o'z iqtisodiy manfaatlarini va g'arbga qarshi ekstremal ritorikadan holi yanada to'g'ri qo'shilmaydigan joy yaratish asosidagi munozaralarda iqtisodiy masalalarga ustuvor ahamiyat berdi.<sup>15</sup>

Oradan uch yil o'tib harakatning oltinchi sammitiga Kuba raislik qildi. Bu Iberoamerika hududidagi birinchi Qo'shilmaslik harakati sammiti edi. Tashkilotchi ushbu tadbirdan Sharqiy blok o'rtasida "tabiiy ittifoq" tuzishni taklif qilish uchun foydalanmoqchi bo'ldi, ammo Yugoslaviyaning kuchli qarshiligiga duch keldi. Ikkala davlat ham o'sha paytlarda sotsialistik tuzumda bo'lishiga qaramasdan, Kuba Qo'shma Shtatlarni, Yugoslaviya esa Sovet Ittifoqini o'z mustaqilligi uchun asosiy tahdid sifatida ko'rdi. Ushbu sammit ba'zi bir ishtirokchilarni konferensiya zalini tark etishiga ham sabab bo'ldi,

<sup>13</sup> Lusaka Declaration (3rd Summit). Lusaka Declaration on peace, independence, development, cooperation and democratization of international development. September 10, 1970. Lusaka, Zambia. Available at: <https://www.ris.org.in/sites/default/files/NAM%20Summit-3-Sep%208-10-1970-FinalDocument-LusakaDeclaration-min.pdf> (Accessed day Dec 21, 2024)

<sup>14</sup> Algiers Declaration. 4th Summit Conference of Heads of State or Government of the Non-Aligned Movement. September 5-9, 1973. Algiers, Algeria. Available at: [http://cns.miis.edu/nam/documents/Official\\_Document/4th\\_Summit\\_FD\\_Algers\\_Declaration\\_1973\\_Whole.pdf](http://cns.miis.edu/nam/documents/Official_Document/4th_Summit_FD_Algers_Declaration_1973_Whole.pdf) (Accessed: Jan 5, 2025)

<sup>15</sup> Sri Lanka Declaration. 5th Summit Conference of Heads of State or Government of the Non-Aligned Movement. August 16-19, 1976. Colombo, Sri Lanka. Available at:

[http://cns.miis.edu/nam/documents/Official\\_Document/5th\\_Summit\\_FD\\_Sri\\_Lanka\\_Declaration\\_1976\\_Whole.pdf](http://cns.miis.edu/nam/documents/Official_Document/5th_Summit_FD_Sri_Lanka_Declaration_1976_Whole.pdf) (Accessed: Jan 8, 2025)



xususan, Kastroning keskin so'zlaridan Xitoy va Gavanadagi AQSh manfaatlari bo'limi vakillari chiqib ketishi orqali o'z noroziligini bildirdi.<sup>16</sup>

Tashkilotning yettinchi sammiti 1983-yilning 7-12 mart kunlarida Hindiston raisligida Dehli shahrida o'tkazildi. Bundan oldingi konferensiyada Yugoslaviya boshchiligidagi mo'tadil a'zo davlatlar va Kuba boshchiligidagi radikal davlatlar o'rtasidagi qarama-qarshilik harakatni inqirozga olib keldi. Shuningdek, Gandi tashkilotning a'zolar sonining kengayishi uning avvalgi birdamligini yo'qotdi va a'zolikka oid umumiy qoida bu ikki blokka ham qo'shilmaslik mafkurasi bo'lib qoldi deya ta'kidladi.<sup>17</sup>

Qo'shilmaslik harakati zaif infratuzilma, mustamlakachilik merosi va global institutlarda qaror qabul qilishdan chetlatilgan global janubning ko'p jabrlar ko'rishidan himoya sifatida ham shakllandi. Adolat, tenglik va ekologik barqarorlikka asoslangan yangi global tartibni talab qilish janubga bog'liq edi. Siyosatshunos Richard Falk ham o'zining "Yo'qolib borayotgan sayyora" asarida global janub (ilgari mustamlaka qilingan va rivojlanayotgan davlatlar) va global shimol o'rtasidagi tenglikni baholaydi. Uning ta'kidlashicha, sanoatlashgan mamlakatlar eng ko'p ifloslanish va ekologik zarar uchun tarixan javobgardir. Buning badalini esa mustamlaka bo'lgan davlatlar to'lashga majbur emas. U demokratik, inklyuziv va rivojlanayotgan mamlakatlar manfaatlariga to'g'ri keluvchi xalqaro institutlar tarafdori. Uning bu g'oyasi Qo'shilmaslik harakatining 1970-yillardagi Yangi xalqaro iqtisodiy tartib talablari bilan mos kelardi.

"Sovuq urush" davrida tashkilotning roli ham katta, ham ko'p qirrali bo'lgani uchun chuqur ichki va tashqi qiyinchiliklarga duch keldi. Monarxiyadan tortib sotsialistik respublikalargacha bo'lgan a'zo mamlakatlar o'rtasidagi mafkuraviy xilma-xillik ko'p holatda nomuvofiq siyosat va konsensusning buzilishiga olib keldi. Tashkilot haqiqiy ikki blokka qo'shilmaslikni saqlab qolish uchun kurashdi, sababi uning ko'plab a'zolari iqtisodiy yoki harbiy tomondan gegemon davlatlarga qaram bo'lib qolgandi.

Bundan tashqari, yaxlit institutsional tuzilma va amalga oshirish mexanizmining yo'qligi Qo'shilmaslik harakatining xalqaro inqirozlarda, jumladan, Vyetnam urushi, Sovet Ittifoqining Afg'onistonga bostirib kirishi, Qo'shma Shtatlarning Lotin Amerikasi siyosatiga aralashuvi kabi idealizm va geosiyosiy realizm o'rtasidagi o'ziga xos qarama-qarshilikni ochib berish qobiliyatini cheklab qo'ygan edi. Buni biz bir qancha tarixiy faktlar bilan tahlil qilishimiz mumkin:

Liberal institutsionalizm nuqtai nazaridan xalqaro tashkilotlar va normalar jahonda barqarorlashtiruvchi rol o'ynaydi. Shunga ko'ra Harakat BMT Nizomining 2-moddasida kichik davlatlarning avtonom tashqi siyosat yuritish huquqini himoya qiluvchi qoidalarni amalda tatbiq etishga intildi.<sup>18</sup>

Tashkilotning tuzilishi unga birinchi navbatda 1960-yilda bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining XV navbatdagi sessiyasida kuch berdi. Misrning o'sha paytdagi hukumat rahbari Abdul Nosir, Ganalik Kvame Nkrumah, Hindistonlik Javaharlal Neru, Indoneziyalik Ahmad Sukarno va Yugoslaviyalik Iosip Broz

<sup>16</sup> Havana Declaration. 6th Summit Conference of Heads of State or Government of the Non-Aligned Movement. September 3-9, 1979. Havana, Cuba. Available at: [http://cns.miis.edu/nam/documents/Official\\_Document/6th\\_Summit\\_FD\\_Havana\\_Declaration\\_1979\\_Whole.pdf](http://cns.miis.edu/nam/documents/Official_Document/6th_Summit_FD_Havana_Declaration_1979_Whole.pdf) (Accessed: Jan 14, 2025)

<sup>17</sup> New Delhi Declaration. 7th Summit Conference of Heads of State or Government of the Non-Aligned Movement. March 7-12, 1983. New Delhi, India. Available at:

[http://cns.miis.edu/nam/documents/Official\\_Document/7th\\_Summit\\_FD\\_New\\_Delhi\\_Declaration\\_1983\\_Whole.pdf](http://cns.miis.edu/nam/documents/Official_Document/7th_Summit_FD_New_Delhi_Declaration_1983_Whole.pdf) (Accessed Jan 17, 2025)

<sup>18</sup> United Nations Charter. Available at: <https://www.un.org/ru/about-us/un-charter/full-text>

Tito muhim rol o'ynab, Afrika va Osiyodagi 17 ta yangi davlatlarning mustaqilligini qabul qilinishiga sababchi bo'lishdi.

Tashkilotning "uchinchi yo'l" siyosatini ilgari surishi undagi a'zo mamlakatlarning birligini oshirishda, turli sohalarida diplomatik aloqalar o'rnatishda kuch sifatida xizmat qildi. Bulardan biri 1974-yilda BMT Bosh Assambleyasining Qo'shilmaslik harakati tashabbusi bilan "Yangi xalqaro iqtisodiy tartib" ni qabul qilishi bo'ldi. Bu tartib orqali rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash maqsadida savdo qoidalari va resurslarni taqsimlash mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish nazarda tutilgan edi. Ammo barchasi kutilganidek amalga oshmadi.

1980-yillarda harakat a'zolaridan bo'lmish Afrika va Lotin Amerikasi davlatlari qarz inqirozi sababli iqtisodiy tushkunlikni boshdan kechirdi. Qo'shilmaslik harakatining Zimbabveda bo'lib o'tgan 8-sammitida iqtisodiy masalalar kun mavzusiga aylantirilishiga qaramay, ishtirokchilar tomonidan birlashgan strategiya ishlab chiqilmadi. O'sha paytda ushbu mamlakatlarning tashqi qarzi 300 milliard dollardan oshgan edi. Qarz muammosi a'zolari XVF va Jahon banki kabi g'arb institutlari bilan shartnoma tuzishga majbur qildi. Lotin Amerikasidagi qarz undagi davlatlardan tashqari Qo'shma Shtatlar va Yevropa bozorini ham xavotirga solardi va eng muhimi, Buyuk Britaniyadagi Margaret Tetcher va AQShda Ronald Reyganning o'sha paytdagi yetakchi konservativ hukumatlarining o'ziga xos belgisi bo'lgan bozorlarning samaradorligi borasida shubha uyg'otadi. Buni yengish maqsadida esa «xalqaro qarz strategiyasi» ishlab chiqildi. Bu vaziyatda Qo'shilmaslik harakati a'zolariga g'arb mamlakatlari tomonidan iqtisodiy yordam ko'rsatilgan va ularning tashkilotga bo'lgan ishonchi hamda Harakat tomonidan talqin qilingan "Yangi xalqaro iqtisodiy tartibot" ning obro'si yo'qoldi.<sup>19</sup>

YXIT kamchiliklaridan tashqari Harakat a'zolari undan xom-ashyo narxlarini barqarorlashtirishda foydalanishdi. 1970-yillarda neft eksport qiluvchi mamlakatlar karteli, qisman Qo'shilmaslik harakati tashabbusi bilan neftlarning narxini muvofiqlashtirishga doir muhim qarorlar qabul qildi. Bu esa a'zo davlatlar iqtisodiyotini global narxlarning o'zgarishiga qarshi himoya qilishga yordam berdi.

1970 - 1980 yillar oralig'ida tashkilot doirasida texnologik hamkorlik ham amalga oshirilishni boshladi. Ayniqsa, Hindiston 1970-yillarning boshlarida yangi urug'lar va zamonaviy sug'orish texnologiyalari orqali ko'proq hosildorlikka erishishda yordam beruvchi "Yashil inqilob"ni amalga oshirdi hamda ushbu texnologiyani Qo'shilmaslik harakati a'zolari bo'lgan Osiyo va Afrikaning bir qancha davlatlari bilan bo'lishgan. Shuningdek, Hindiston sug'orish texnologiyasi bilan cheklanib qolmay, quyosh energiyasidan ham foydalanish imkoniyatini beruvchi texnologiyalarni yaratdi va ularni issiq o'lkalarda sinab ko'rishni taklif qildi.

Shu bilan birga Braziliyada ham tropik iqlimga moslashtiruvchi texnologiyalar ortidan soya navlari yetishtirilishni boshladi va bu yillar o'tgani sayin Braziliyani dunyodagi yetakchi soya ishlab chiqaruvchi davlatlardan biriga aylantirdi. Bundan tashqari, davlat o'z iqtisodiyotini neft inqirozi davrida etanol dasturini ishga tushirishga qaratdi. Bu esa

<sup>19</sup> Paul Stubbs. Interview about The Non-aligned Movement then and now". November 8, 2023. Green European Journal. Available at: <https://www.greeneuropeanjournal.eu/the-non-aligned-movement-then-and-now/#:~:text=o%27n%20yillikning%20oxirida-,Margaret%20Tetcher,-va%20Ronald%20Reagan> (Accessed March 27, 2025)

Braziliyaning neftga qaramligini kamaytirib, etanol yoqilg'isiga moslashtirilgan avtomobil texnologiyalarini rivojlantirishiga turtki bo'ldi. Iqtisodiy hamkorlik va aloqalar ortidan o'z texnologiyalarini Harakat doirasidagi mamlakatlarga eksport qilish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Lotin Amerikasi mamlakatlaridan bo'lmish Kuba ham 70-yillar oralig'ida tibbiyotga o'z e'tiborini qaratdi va Qo'shilmaslik harakati doirasida tibbiy missiyalarni amalga oshirdi. Hindiston va Kuba ishlab chiqargan arzon dori vositalar tashkilotga a'zo rivojlanayotgan mamlakatlarga iqtisodiy yordam sifatida jo'natildi. Qo'shimcha ravishda, Kuba yigirmadan ortiq malakaviy shifokorlarni Afrikaning rivojlanayotgan davlatlariga tibbiy missiya sifatida jo'natdi. Ular endi mustaqillikni qo'lga kiritgan, tibbiyot infratuzilmasi zaif bo'lgan davlatlarda aholiga bepul xizmatlar ko'rsatishdi.

Birdamlik ruhini kuchaytiruvchi ushbu dastur Afrika aholisining tibbiyotga qiziqishini oshirdi va Kuba ularni Gavana yaqinidagi tibbiyot universitetida bepul o'qitdi. Buning natijasida Afrika o'zining tibbiy kadrlarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ldi va ichki sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlashga ustuvor qadamni tashladi. Ma'lumotlarga ko'ra, 1978-yilgacha Kuba Afrikaning 30 dan ortiq davlatlaridan shifokor kadrlarni yetishtirgan.

Har bir tashkilotning ijobiy tomonlari bo'lganidek, uning ko'zga ko'ringan kamchiliklari ham bo'lishi tabiiy. Qo'shilmaslik harakatining eng katta kamchiliklaridan biri bu a'zo mamlakatlar o'rtasida g'oyaviy va strategik birlikning yo'qligi edi. Harakat rasmiy jihatdan imperializm, mustamlakachilik, irqchilik va har qanday blok siyosatiga qarshi chiqqan bo'lsa-da, unga a'zo davlatlar turli siyosiy tizimlarga, madaniyat va manfaatlariga ega bo'lganliklari sababli, ko'p hollarda yagona qarorga kelish imkoni bo'lmagan.

Darhaqiqat, tashkilotning siyosiy bayonotlari ko'pincha xalqaro hamjamiyatga murojaat ko'rinishida bo'lib, real ta'sir kuchi sust edi. Ayniqsa, BMT Xavfsizlik Kengashida veto huquqiga ega davlatlarga qarshi turishda uning harakati zaif ko'rinardi. Masalan, 1961-yil Belgraddagi ilk sammitda Qo'shilmaslik harakatining asoschilari harakatni xalqaro tinchlikning kafolati sifatida tasvirlashgan edi. Ammo, 1962-yildagi Kuba raketa inqirozi yoki Vyetnam urushi chog'ida real siyosiy ta'sir kuchiga ega bo'lib, vositachilik rolini bajara olmadi. Chunki Qo'shilmaslik harakati ilk tashkil topgan davrda rasmiy institutlari shakllanmagan, bo'sh ixtiyoriylik asosiga qurilgan harakat edi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti yoki Amerika Davlatlari Tashkilotidan farqli o'laroq, Qo'shilmaslik harakatining yozma nizomi, yoxud doimiy faoliyat olib boruvchi kotibiyati mavjud emas edi. Harakat doirasida barcha a'zolar teng maqomga ega bo'lib, qarorlar odatda uch yilda bir marta chaqiriladigan sammitlarda konsensus – umumiy yakdillik asosida qabul qilinar edi. Tashkilotga doimiy raislik qilish tizimi yo'qligi uchun har uch yillik sammitda raislik boshqa davlatga o'tar va aynan o'sha rais mamlakat harakatning muvofiqlashtiruvchisi vazifasini bajarardi.<sup>20</sup>

Bunday tuzilma inqirozlar paytida tezkor va aniq pozitsiya ishlab chiqishni qiyinlashtirgan. Qaror qabul qilish uchun barcha a'zolarining yakdil roziligi zarur edi, bu esa keskin vaziyatlarda, ayniqsa, vaqt kam bo'lgan sharoitda, amalda mushkul edi. 1962-yilgi

<sup>20</sup> Andre Munro. "Non-aligned movement". March 17, 2025. Encyclopedia Britannica. Available at: <https://www.britannica.com/topic/Non-Aligned-Movement> (Accessed December 7, 2024)

Kuba inqirozi chog'ida ham Qo'shilmaslik harakati nomidan darhol harakat qiladigan hech qanday doimiy kengash yoki shtab mavjud emas edi. Favqulodda yig'ilish chaqirish mexanizmi yo'qligi sababli, harakat jamoaviy ravishda ovoz berib biron-bir rezolyutsiya qabul qilgani yoki rasmiy bayonot bergani kuzatilmadi.

Rasmiy bayonot berilmagan bo'lsa-da, Qo'shilmaslik harakati a'zolari inqirozni yumshatish maqsadida bir qator yashirin diplomatik urinishlarni amalga oshirdilar. Eng muhim tashabbuslardan biri BMT doirasida, harakat vakillari tomonidan Bosh kotib U.Tant orqali ilgari surildi. U 1962-yil 24-oktabr kuni qirqdan ortiq qo'shilmagan davlatlar iltimosiga binoan AQSh va SSSR rahbariyatiga maxfiy murojaat yo'llab, keskinlikni pasaytiruvchi choralarni taklif qildi. Sovet Ittifoqi Kubaga strategik qurol-yarog' yetkazib berishni ixtiyoriy ravishda to'xtatib turilishini, buning evaziga AQSh Kubaga nisbatan e'lon qilgan harbiy-dengiz blokadasini vaqtincha bekor qilishini yozgan. Ushbu vositachilik taklifi qisman ijobiy samara berdi, ya'ni Nikita Xrushchov taklifni ma'qullab, Sovet kemalariga Kubaga yadro qurollarini olib bormaslik haqida ko'rsatma berdi va mo'ljallangan jo'natmalarni to'xtatdi. Biroq Prezident Kennedi U.Tant iltimosining ikkinchi qismiga ya'ni AQShning dengiz blokadasini to'xtatishga rozi bo'lmadi va Amerika harbiy dengiz kuchlari Kuba atrofidagi qurshovni davom ettirdi. Bu misollar orqali Qo'shilmaslik harakatining o'z a'zolariga mutlaqo bee'tibor emasligini anglashimiz mumkin.

Bundan tashqari, Qo'shilmaslik harakati a'zo davlatlarida ichki siyosiy barqarorlik ham yo'q edi. Tashkilotning asosiy mezoni urushlardan holi bo'lishni nazarda tutishiga qaramay, harbiy to'ntarishlar, diktatura rejimlari va siyosiy repressiyalar davom etdi. Tinchlik va demokratiya g'oyalari zid ravishda 70-80 yillar oralig'ida Gana, Uganda, Zair va boshqa a'zo mamlakatlar ichida harbiy to'ntarishlar yuz bergan. Xuddi shunday, Eron – Iroq urushi (1980-88) mobaynida ichki bo'linish va parokandalik ortidan ikkala davlat ham o'z hududiy va diniy manfaatlarini ustun qo'yganligi bois Harakat mamlakatlar uchun oddiy bir platforma bo'lib qoldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Sovuq urush" davridagi Harakat faoliyati Uchinchi dunyo boshchiligidagi ikki qutbli agressiv vaziyatdan o'tishga qaratilgan sa'y-harakatlarning imkoniyatlari va o'ziga xos qarama-qarshiliklarini ko'rsatdi. 1960-1990 yillar davomida Qo'shilmaslik harakati tinch-totuv yashash, dekolonizatsiya, iqtisodiy hamkorlik va teng huquqli xalqaro tartibning umumiy kun tartibini ifodalovchi navbatdagi sammitlar va vazirlar uchrashuvlarini o'tkazdi. Kollektiv forum tashkil etish orqali Qo'shilmaslik harakati yangi mustaqil davlatlarga o'z suverenitetini tasdiqlash, blok siyosati mafkurasiga qarshi chiqish va global resurslarni yanada adolatliroq taqsimlashga intilayotgan Yangi xalqaro iqtisodiy tartib kabi takliflarni ilgari surish imkonini berdi.

Amalda tashkilotning ko'p tomonlama diplomatiyaga e'tibor qaratilishi bir qancha aniq natijalarni berdi. A'zo davlatlar Birlashgan Millatlar Tashkilotida qo'shma pozitsiyalarni safarbar qildilar, mintaqaviy mojarolarda o't ochishni to'xtatishga yordam berdilar va o'zaro rivojlanish yordamini muvofiqlashtirdilar. Harakatning mustamlakachi dekolonizatsiyaga bo'lgan talabi Yevropa mustamlakachi kuchlariga ma'naviy va siyosiy bosim o'tkazib, Afrika va Osiyoda imperiyaning tugashini tezlashtirdi. Bundan tashqari, Qo'shilmaslik harakati Janub-Janub hamkorligini, xususan, texnologik yordam, sog'liqni



saqlash (ayniqsa, Afrikadagi Kuba tibbiy missiyalari) va madaniy almashinuv sohalarida bipolyar kuch homiyligidan mustaqil hamkorlikning muqobil kanallarini yaratdi.

Shunga qaramay, Qo'shilmaslik harakatining "Sovuq urush" dinamikasini shakllantirish qobiliyati cheklanganligicha qoldi. Uning konsensusga asoslangan qarorlar qabul qilishi ko'pincha aniq siyosiy vositalaridan ko'ra keng deklaratsiyalarni ishlab chiqdi.

Mafkuraviy xilma-xillik, ya'ni Yugoslaviyadagi radikal qo'shilmaslikdan Hindiston va Zambiya, Afrika sotsializmidagi pragmatik tengligacha cheklangan uyg'unlik mavjud edi. A'zolar o'rtasidagi iqtisodiy nosimmetrik moliyaviy yuklarni adolatli taqsimlashga to'sqinlik qildi, buyuk kuchlarning induksiylari va bosimi doimiy ravishda birlikni buzish bilan tahdid qildi.

Aniqroq qilib aytganda, Qo'shilmaslik harakatining "Sovuq urush"dagi mohiyati bipolyar gegemoniyani ag'darib yuborish bilan emas, balki kichik davlatlar bir ovozdan gapirsa nima bo'lishi mumkinligini namoyon qildi. U keyingi yillarda ham resurslarni qanday taqsimlash, chegaralarni hurmat qilish va xalqaro huquq normalariga rioya etishda adolatni talab qilishda davom etdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Algiers Declaration. 4<sup>th</sup> Summit Conference of Heads of State or Government of the Non-Aligned Movement. September 5-9, 1973. Algiers, Algeria. Available at: [http://cns.miis.edu/nam/documents/Official\\_Document/4th\\_Summit\\_FD\\_Algers\\_Declaration\\_1973\\_Whole.pdf](http://cns.miis.edu/nam/documents/Official_Document/4th_Summit_FD_Algers_Declaration_1973_Whole.pdf) (Accessed day Jan 5, 2025)

2. Cairo Declaration. 2nd Summit Conference of Heads of State or Government of the Non-Aligned Movement. September 10, 1964. Cairo, Egypt. Available at: [http://cns.miis.edu/nam/documents/Official\\_Document/2nd\\_Summit\\_FD\\_Cairo\\_Declaration\\_1964.pdf](http://cns.miis.edu/nam/documents/Official_Document/2nd_Summit_FD_Cairo_Declaration_1964.pdf) (Accessed day Dec 13, 2024)

3. Havana Declaration. 6<sup>th</sup> Summit Conference of Heads of State or Government of the Non-Aligned Movement. September 3-9, 1979. Havana, Cuba. Available at: [http://cns.miis.edu/nam/documents/Official\\_Document/6th\\_Summit\\_FD\\_Havana\\_Declaration\\_1979\\_Whole.pdf](http://cns.miis.edu/nam/documents/Official_Document/6th_Summit_FD_Havana_Declaration_1979_Whole.pdf) (Accessed day Jan 14, 2025)

4. Lusaka Declaration (3rd Summit). Lusaka Declaration on peace, independence, development, cooperation and democratization of international development. September 10, 1970. Lusaka, Zambia. Available at: <https://www.ris.org.in/sites/default/files/NAM%20Summit-3-Sep%208-10-1970-FinalDocument-LusakaDeclaration-min.pdf> (Accessed day Dec 21, 2024)

5. New Delhi Declaration. 7<sup>th</sup> Summit Conference of Heads of State or Government of the Non-Aligned Movement. March 7-12, 1983. New Delhi, India. Available at: [http://cns.miis.edu/nam/documents/Official\\_Document/7th\\_Summit\\_FD\\_New\\_Delhi\\_Declaration\\_1983\\_Whole.pdf](http://cns.miis.edu/nam/documents/Official_Document/7th_Summit_FD_New_Delhi_Declaration_1983_Whole.pdf) (Accessed day Jan 17, 2025)

6. Sri Lanka Declaration. 5<sup>th</sup> Summit Conference of Heads of State or Government of the Non-Aligned Movement. August 16-19, 1976. Colombo, Sri Lanka. Available at: [http://cns.miis.edu/nam/documents/Official\\_Document/5th\\_Summit\\_FD\\_Sri\\_Lanka\\_Declaration\\_1976\\_Whole.pdf](http://cns.miis.edu/nam/documents/Official_Document/5th_Summit_FD_Sri_Lanka_Declaration_1976_Whole.pdf) (Accessed day Jan 8, 2025)

7. United Nations Charter. Available at: <https://www.un.org/ru/about-us/un-charter/full-text>
8. Ministry of external affairs of India. "History and evolution of Non-aligned movement". August 22, 2012. Available at: <https://www.mea.gov.in/Speeches-Statements.htm?dtl/20349/History+and+Evolution+of+NonAligned+Movement> (Accessed day Dec 20, 2025)
9. Andre Munro. "Non-aligned movement". March 17, 2025. Encyclopedia Britannica. Available at: <https://www.britannica.com/topic/Non-Aligned-Movement> (Accessed December 7, 2024)
10. Craig Calhoun. Immanuel Wallerstein and the Genesis of world-systems analysis. 2023. Journal of World-systems research, Vol.29, Issue 2. Arizona university. Available at: <https://jwsr.pitt.edu/ojs/jwsr/article/download/1197/1611/5040#:~:text=Wallerstein%20reports%20being%20convinced%20from,Conference%20of%201955%2C%20and%20Indian> (Accessed day December 26, 2024)
11. Ivana Ancic. "Belgrade, The 1961 Non-Aligned Conference". August 17, 2017. Global South Studies. Available at: <https://www.globalsouthstudies.org/keyword-essay/belgrade-the-1961-non-aligned-conference/> (Accessed day December 26, 2024)
12. Paul Stubbs. Interview about The Non-aligned Movement then and now". November 8, 2023. Green European Journal. Available at: <https://www.greeneuropeanjournal.eu/the-non-aligned-movement-then-and-now/#:~:text=o%27n%20yillikning%20oxirida-,Margaret%20Tetcher,-va%20Ronald%20Reygan> (Accessed day March 27, 2025)